

“Ovoz rejissorligi va operatorlik mahorati” kafedrasи

Kafedra mudiri:



ADILOV ANVAR DJURAYEVICH

Qabul kunlari: Shanba kuni soat:10:00-15:00

Telefon: 71 230 28 32

e-mail:

Kafedra qisqa tarixi:

Ovoz rejissorligi va operatorlik mahorati kafedrasi 1991-yilda, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Ostrovskiy nomidagi teatr va rassomchilik institutida, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, professor Abdurahim Ismoilovning tashabbusi bilan "Kinoteleoperatorlik" bo'limi tashkil etildi. Talabalarga dars berish uchun amaliyotda katta tajriba orttirgan malakali mutaxassislar taklif qilindi. jumladan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Kim Gim Nyan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, davlat mukofoti sovrindori Xotam Fayziyev, "O'zbektelefilm" kinostudiyasi operatorlari: K.Karimov, N.Gerasimov, «O'zbekiston ilmiy ommabop va hujjatli filmlar studiyasi» operatori Sh.Mahmudov, G'.Shukurov va kinoinqiner L.Muhamedovlar, keyinchalik «O'zbekfilm» kinostudiyasi operatori Hasan Fayziyev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, davlat mukofoti sovrindori, kinorejissyor – kinooperator Turdi Nodirov, «O'zbekfilm» kinostudiyasi kinoapparatura va optika bo'yicha muhandis va tasvirga olish texnik bo'limi boshlig'i Serafima Kim, "O'zbektelefilm" studiyasi kinooperatori Marat Soliev, «O'zbekfilm» kinostudiyasi rejissyor – montajchisi Adiba Nosirova, «O'zbekiston ilmiy ommabop va hujjatli filmlar studiyasi» rejissyor-operatori Marat Ismoilov kabi o'zbek kinosining taniqli namoyondalari kafedraga jalb qilinib, talabalarga soha sirlaridan ijodiy-nazariy tomonlaridan talim berib keldilar. 2011-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat muassasalarini yosh mutaxassislar bilan ta'minlash to'g'risida"gi Farmoniga asosan kafedra mudirligi yosh mutaxassis, iste'dodli kinooperator-kinorejissyor kafedra dosenti I.Meliqo'zievga ishonib topshirildi.



Institut O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilning 4 iyundagi N 1771 sonli farmoniga ko'ra Toshkent davlat madaniyat instituti va O'zbekiston davlat san'at instituti asosida tashkil etilgan.

Bakalavr ta'lif yo'naliishlari ro'yxati:

- 60210100 – Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi)
 - 60210200 – Kino-teleoperatorlik
- 60210300 – San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash

Magistratura mutaxassislari ro'yxati:

- 70210101 – Ovoz rejissorligi (kino, televideniye va radio ovoz rejissorligi)
 - 70210201 – Kinooperatorlik
 - 70210202 – Teleoperatorlik

Kafedrada o'qitiladigan fanlar:

60210100 – Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi)

1. Ovoz rejissyorligi mahorati

2. Akustika asoslari

3. Ovoz partiturasi

4. Audiovizual taxlil

5. Musiqa va shovqinlar bezagi

6. Dublyaj san'ati asoslari

7. Ovoz yozish aksessuarlari

60210200 – Kino-teleoperatorlik

1. Fotokompozitsiya

2. Kinoteleoperatorlik mahorati

3. Raqamli fotografiya

4. Maxsus va murakkab tasvirga olish

5. Kino-video texnika asoslari

6. Montaj

7. Yorug'lik, rang va kompozitsiya asoslari

8. Tasviriy effektlar va postprodakshn

60210300 – San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash

1. Animatsiya rejissurasi

2. Tasviriy effektlar va postprodakshn

3. Maxsus va murakkab tasvirga olish

4. Dizayn grafikasi asoslari

5. Maxsus va murakkab montaj

6. Animatsion film dramaturgiyasi

7. Multimedia loyixalash

8. 3D,5D,7D animatsiya amaliyoti

Magistraturada o'tiladigan fanlar:

70210201 – Kinooperatorlik

1. Kinooperatorlik mahorati nazariyasi
2. Kino kameralar va yoritish uslublari nazariyasi
 3. Operator ishi nazariyasi
 4. Kino va televidenieda tasviriy yechim
 5. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi
 6. Kinokadr kompozitsiyasi
- 70210202 – Teleoperatorlik
 1. Teleoperatorlik mahorati nazariyasi
 2. Kino kameralar va yoritish uslublari nazariyasi
 3. Operator ishi nazariyasi
 4. Kino va televidenieda tasviriy yechim
 5. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi

Kafedraning professor-o'qituvchilarining tarkibi:



Abduraxim Isroilovich Ismoilov – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, davlat mukofoti sovrindori, professor.

Abdumannon Ubaydullayev- San'atshunoslik fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasida hizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, dotsent.

Oltinoy Qosimovna Tojiboeva -San`atshunoslik fanlari doktori, professor.

Shuxrat Kamalovich Adilov -“Shuxrat” medali sohibi o'qituvchi.
Iqbol Mamasodiqovich Meliqo'ziev- dotsent.

Xamidulla Babaevich Xasanov-O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi katta o'qituvchi.

Xidirova Kamola Sodikovna-katta o'qituvchi
Adilov Anvar Jo'raevich-o'qituvchi.

Azizbek Xikmatullaevich Arzuqulov -o'qituvchi.

Nargiza Ismatullaevna Sadikova- o'qituvchi.

Aleksey Vladimirovich Xmirov- o'qituvchi.

Shoxrat Charievich Amanmuradov- o'qituvchi.

Qalandarov Izzat Omonboyevich- o'qituvchi.

Orifjon Rashidovich Raximdjonov- o'qituvchi.

Mirsaidova Diloram Izzatullayevna- o'qituvchi

Talabbayev Rustam Ergashaliyevich- o'qituvchi

Ro'zmetov Jo'rabek Yarshovich-o'qituvchi

Kafedrada bajarilayotgan davlat va chet el grantlari:

2015 yil noyabr oyida kafedramiz katta o'qituvchi I.Meliqo'ziev Koreya respublikasining Seul shaxrida IChKAP tashkiloti (Osiyo va Tinch okeani mintaqasida nomoddiy madaniy meros bo'yicha xalqaro axborot va hamkorlik markazi, Koreya Respublikasi YuNESKOning 2-toifali markazi) nomoddiy madaniy merosni xujjatlashtirish soxasida operator mutaxassislarini malakalarini oshirish bo'yicha mashg'ulotlardagi ishtirok etib malaka oshirib qaytdi, mazkur grand asosida 10 xujjatli film tasvirga olingan.

Kafedraning ilmiy ishlari (oxirgi 5 yilda chiqarilgan darsliklar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati):

2018 yil A.Ismoilov. "Kinos'jomochnye kamery i metody osvezheniya" darslik.

2018 yil K.Xidirova. "Kinoteleoperatorlik mahorati" o'quv qo'llanma nashr ruxsatnomasi № (264-063).

2018 yil Sh.Amanmuradov, D.Mirsaidova . "Ovoz rejissyorligi mahorati" o'quv qo'llanma nashr ruxsatnomasi. № (274-071).

2018 yil A.Xmirov. "Osnovy akustiki" o'quv qo'llanma nashr ruxsatnomasi. № (274-072).

2018 yil A.Xmirov. "Masterstvo zvukorejissury" o'quv qo'llanma nashr ruxsatnomasi. № (274-073).

2018 yil A.Xmirov,Sh.Amanmuradov,

"Aksesuarы zvukozapisi" o'quv qo'llanma . № (1000-093).

2018 yil A.Xmirov. "Elektronnaya muzika" o'quv qo'llanma № (1000-092).

2018 yil Sh.Amanmuradov. " Muzikalnoe i shumovoe oformlenie" o'quv qo'llanma № (1000-091).

2018 yil I.Meliqo'ziev. "Animatsiya rejissurasi" o'quv qo'llanma. № (1000-087).

2018 yil I.Meliqo'ziev. "Tasviriy effektlar va postprodakshn" o'quv qo'llanma. № (1000-088).

2018 yil I.Meliqo'ziev. "Kino-video texnika asoslari" o'quv qo'llanma. № (1000-086).

2018 yil I.Meliqo'ziev, K.Xidirova. "Fotokompozitsiya" o'quv qo'llanma. № (1000-089).

2018 yil I.Meliqo'ziev, K.Xidirova. "Multimedia loyixalash" o'quv qo'llanma. № (1000-090).

2018 yil A.Ismoilov. "Kinoteleoperatorskaya masterstvo (osnovy kompozitsii i kinofoto-osveshenie v masterstve kinooperatora" o'quv qo'llanma. № (1000-094).

Kafedraning ilmiy va amaliy hamkorlari:

Toshkent Madaniyat kolleji
Respublika televideniye va radio kolleji

Kafedraning xalqaro xamkorligi:

Koreya respublikasining Seul shaxrida IChKAP tashkiloti (Osiyo va Tinch okeani mintaqasida nomoddiy madaniy meros bo'yicha xalqaro axborot va hamkorlik markazi, Koreya Respublikasi YuNESKOning 2-toifali markazi)

Zagreb universiteti,
Andalusiya universiteti,

Belarussiya davlat madaniyat va san'at universiteti,
Janubiy Koreya Respublikasining "Dong-A media va san'at" instituti
Xindiston davlatining Mumbay film kinoakademiyasi
Butunrossiya davlat kinematografiya instituti bilan xamkorlik
aloqaliri yo'lga qooyilgan.

Kafedraning korxona va tashkilotlar bilan aloqalari:

O'zbekkino Milliy agentligi
O'zbekfilm kinostudiyasi DUK.
O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi.
Hujjatli va xronikal filmlar studiyasi DUK.
O'zbekiston kinoarboblar ijodiy uyushmasi